

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

*Qo'lyozma huquqida*  
UDK:336.5:336.6

**ABZALOVA GULXAYO MAXMUDOVNA**

**KREDIT INSTITUTLARINING KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY RESURSLAR BILAN  
TA'MINLASHDAGI ROLINI OSHIRISH**

**5A230701 – Bank ishi (faoliyat turlari bo'yicha) mutaxassisligida  
Magistr akademik darajasini olish uchun tayyorlangan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: i.f.n., dotsent A.A.Azlarova**

**Toshkent – 2019**

Mazkur magistrlik dissertatsiyasida kredit institutlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdagi rolini oshirish masalalari tadqiq qilingan. tadqiqtot ishida tijorat banklarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini tahlil qilingan, olingan natijalar asosida ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

In this masters thesis, the role of credit institutions in enhancing the role of small businesses and private entrepreneurship in providing financial resources has been studied. In the research, the mechanism of lending to small businesses and private entrepreneurship in commercial banks was analyzed, and scientific recommendations and practical recommendations were developed based on the results.

Magistrlik dissertatsiyasi «Bank ishi» kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. 31-sonli bayonnomma «15» uvoni 2019 yil.

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. A.A.Azlarova

  
imzo


sana

Magistr: M,A. Abzalova

  
imzo

sana

**«Himoyaga tavsiya etiladi»**  
«Bank ishi» kafedrasi mudiri,  
PhD. U.Sh.Duskobilov

  
«03» uvoni 2019 y.

Magistrlik dissertatsiyasi himoyasi 2019 yil «2» uvoni soat 14:00 da  
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

### I BOB. KREDIT INSTITUTLARINING KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINI MOLIYAVIY RESURSLAR BILAN TA'MINLASHDAGI ROLINI OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI.....8

1.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mohiyati va ularning iqtisodiyotda tutgan o'rni.....8
1.2. Kichik biznes subyektlarini mikromoliyalash xususidagi nazariy qarashlar.....17
1.3.O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning huquqiy asoslari.....21
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....32

### II BOB. KREDIT INSTITUTLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINI MOLIYAVIY RESURSLAR BILAN TA'MINLASHNING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING TAHLILI.....34

2.1. O'zbekistonda kredit institutlari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minalashning amaldagi holatining tahlili.....34
2.2. TIF Milliy bankning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kredit institutlari moliyaviy resurslari hisobidan kreditlashining tahlili.....42
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....52

### III BOB. KREDIT INSTITUTLARINING KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINI MOLIYAVIY RESURSLAR BILAN TA'MINLASHDAGI ROLINI OSHIRISH YO'LLARI.....55

3.1. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning xorij tajribasi.....55
3.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kredit institutlari moliyaviy resurslari hisobidan kreditlashning istiqbollari.....62
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....67
XULOSA VA TAKLIFLAR.....68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....72
ILOVALAR.....80

## KIRISH

### **Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.**

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish, ularga zamonaviy, chet el bozorlarida raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirishda va uni eksportga chiqarishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko‘rsatish, mamlakatimizning eksport qiluvchi tadbirkorlarini tashqi bozor kon'yunkturasi o‘zgarishlari xavf-xatarlaridan ishonchli himoya qilishni taqozo etadi.

Bu borada Prezidentimizning Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida keltirilgan asosiy g‘oya va takliflarda, “2018 yilda 18 ta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi va 52 milliard dollarlik 1 ming 80ta loyiha bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etdi.

Bugungi kunda yurtimizda, chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456 ta loyiha amalga oshirilmoqda<sup>1</sup>” deb ta’kidlab o‘tganlari bejiz emas.

Ma’lumki, jahonda «Doing Business» tadqiqi va bahosi davlatlar rivojiga katta hissa qo‘shadi, jumladan, ishbilarmonlik va raqobat muhitini kuchaytiradi, investorlar va ularga talabgor davlatlar uchun «ishonchli ko‘prik» vazifasini o‘taydi.

O‘zbekiston ushbu reyting bo‘yicha tobora yuqorilab, o‘z imkoniyatlarini oshirmoqda. Buni yurtimizga katta qiziqish bildirayotgan xorijiy investorlar hattiharakatlari ham tasdiqlab, O‘zbekiston «Doing Business»ning so‘nggi hisobotida iqtisodiyotni yaxshilashning besh bosqichi bo‘yicha mamlakatimiz eng maqbul va katta o‘zgarishlar qilgan kuchli o‘nlik (davlat) safidan o‘rin olganligi ta’kidlandi.

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi/ Xalq so‘zi. 29. 12. 2018 y